

“BOSHLANG’ICH SINFLARDA MATEMATIKA O’QITISHNING VAZIFALARI VA MAQSADI”

Taspenova Madina Talg’at qizi

Navoiy davlat pedagogika

instituti 2-kurs “Boshlang’ich ta’lim” fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar:**Kazbekova Fariza Polatovna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang’ich sinflarda matematika o’qitishning vazifalari va maqsadi xususida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: matematika o’qitishning vazifalari, mantiqiy mashq, individual ish olib borish, nazariy va amaliy ko’nikmalar.

Аннотация: В этой статье обсуждаются задачи и цель преподавания математики в начальных школах.

Ключевые слова: Задачи преподавания математики, логические упражнения, индивидуальные работы, теоретические и практические навыки.

Annotation: This article discusses the tasks and purpose of teaching math in primary schools.

Key words: Tasks of teaching math, logical exercises, individual work, theoretical and practical skills.

Mamlakatimizda boshlang’ich sinflarda matematika o’qitish umuman maktab matematika kursini o’zlashtirishning dastlabki bosqichi sifatida qaraladi. Shu sababli boshlang’ich sinflarda ishlashda o’rta maktabda matematika o’qitishda ko’zda tutiladigan umumiylasalalarni hisobga olish va bu masalalarni hal etishda boshlang’ich ta’limning ahamiyatini to’g’ri baholash kerak.

O’rta maktab matematika dasturiga taalluqli ko’pgina masalalar boshlang’ich sinflardayoq shu darajada mustahkam o’zlashtirilishi kerakki, bunda ular o’quvchilar ongida butun umr saflanib qolsin, boshqa masalalar esa o’qitishning dastlabki bosqichida keying sinflarda mufassal qarab chiqishga tayyoragarlik ko’rish maqsadidagina kiritiladi yoki biror malaka va ko’nikmalarni shakllantirish jarayonida fikrlash qobiyyati darajasini oshirish imkoniyatiga ega bo’lish uchun kiritiladi.

Nazariya amaliy o’quv va ko’nikmalarni egallashga yordam beribgina qolmay, nazariya va amaliyotning qarab chiqilayotgan masalalari orasida matematik munosabatlarni o’rnatishga, matematika o’qitish samaradorligini oshirishga o’qituvchiga yordam beruvchi asosiy vositalardan biridir.

Bolalarning mактабда boshlang'ich sinflardan keying sinfga o'tishida albatta vujudga keladigan qiyinchiliklar ko'п darajada aynan ana shu asosda bartaraf etilishi mumkin. Bu aksincha, agar o'qituvchi har tomonlama bilimlarga maxsus e'tibor bermasa va bolalarni bir xil turdagи savollarga , topshiriglarga, ifodalarga, masalalarga o'rgatib qo'ysa, bu 5-sinfda fanlar bo'yicha o'qitishga o'tishdagi murakkablikni yanada orttiradi. Bu masala bolalar bilim qobiliyatlarini o'stirishning ancha umumiy masalasi bilan uzviy bog'langan. Boshlang'ich maktabdayoq bolalarda kuzatish va taqqoslash, solishtirilayotgan hodisalardagi o'xshashlik va farq qiladigan belgilarni ajratish, tahlil, sintez, umumlashtirish, abstraksiyalash, aniqlashtirish kabi amallarni bajarish uchun ko'п ish qilingan bo'lishi kerak.

Bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalasi bilan ularda to'g'ri, aniq, qisqa, matematik nutqni o'stirish masalasi uzviy ravishda bog'langandir. Bu boshlang'ich ta'limning muhim vazifalaridan biridir.

Biz o'qitishda individual yondashishni nazarda tutishimiz zarur. Biz ana shu talabni qanday tushunamiz? O'qitishdagi individual yondashish faqat mashq ishlarida emas, balki o'quv jarayonining hamma bosqichlarida: yangi materialni o'tishda, mustahkamlashda va takrorlashlarda ham, uy vazifasini tuzishda va darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlarda ham

amalga oshirilishi zarur. Uni, masalan, yangi material o'rganilayotganda qanday amalga oshiriladi? O'qituvchi materialni tushuntirar ekan,darslikning paragrafi bilan cheklanishi mumkin emas. U ayrim ma'lumotlarni ancha kuchli o'quvchilarni nazarda tutib bayon qilishi lozim. Bunda bo'sh o'quvchilar nima qilishi kerak? O'qituvchi ularni hisobga olmagan-ku? Ko'pchilik tajribali o'qituvchilar qiyin mavzularni o'tishdan oldin ana shunday o'quvchilar bilan qo'shimcha ish doimiy ravishda bo'lmasa-da, o'qituvchining faoliyatida zarurdir. Bo'sh o'quvchilar bilan ishlash darslarda ham, qo'shimcha mashg'ulotlarda ham amalga oshirilishi kerak. Bu ishlarda faqat o'qituvchilar emas, balki mazkur sinfdagi kuchli o'quvchilar yoki bo'sh o'quvchilarga biriktirilgan yuqori sinf o'quvchilari ham qatnashishi lozim.

Mening fikrim bo'yicha, 1-sinf matematika darsligida har bir sahifada mantiqiy mashqlar (taqqoslash, tartiblash, umumlashtirish uchun) bor. O'quvchilar ularni qiziqib bajaradilar. Bular qanaqa rasmlar qanday topshiriqni bajarish lozimligini bolalarning o'zlari so'zlab bersalar foydali bo'ladi. Afsuski, ko'pchilik o'qituvchilar bolalarga buni o'z vaqtida o'rgatmasdan hatto 3-4 sinflarda ham topshiriglarni o'zlari o'qib, ma'nosini o'zlari tushuntirib beradilar. Uy vazifalarini bajarishda kattalar rahbarlik qiladilar: nimani qanday bajarish kerakligini tushuntirib beradilar, topshiriq to'g'ri bajarilganligini tekshiradilar. O'quvchilar topshiriglarni yuzaki

bajaradilar, topshiriqning ma'nosи ustida o'ylab o'tirmaydilar. Bu esa mustaqil va tekshirish ishlarini bajarishda ishonchsz xarakat qilishlariga sabab bo'ladi. Har bir o'quvchining daftari har bir darsda o'qituvchi tomonidan diqqat bilan kuzatib borilishi kerak, o'quvchining ishda yo'l qo'ygan hamma kamchiliklarini o'ziga ko'rsatib boorish kerak. Daftarlarda aniq, puxta, matematik to'g'ri yozib borishni talab qilish o'qituvchining matematikadan olib boriladigan ishining sifatli bo'lishi uchun kurashishning mezonidir.

Darsda birgalikda ishlashga 1-sinfdan boshlab o'rgatish mumkin. Birinchi sinf o'quvchilari uchun o'z o'rtog'i bilan hamkorlikda ishlash qiziqarlidir. Masalan, 6 sonining tarkibini o'rganishda birgalikdagi ishni bunday tashkil etish mumkin: "Chap tomonda o'tirgan o'quvchilar, 6 ta cho'p qo'ying, cho'plarni shunday bo'lingki, har biringizda baravardan cho'p bo'lsin. Har biringizda birgalikda qancha cho'p bo'ldi? Demak, $6=3+3$. Endi o'ng tomonda bu cho'plarni shunday bo'lingki, biringizda ikkinchingizga qaraganda kamroq cho'plar bo'lsin. Har biringizda qanchadan cho'p bo'lganligini ko'rsating. Demak, $6=2+4$, $6=1+5$. Birgalikda ishlash faoliyatining faollashuviga yordam beradi. Har darsda mavzuga doir dedaktikaliq o'yinlar orqali tashkil qilsak bolalarning qiziqishini yanada orttiramiz. Biz dars o'tganimizda o'quvchilarning o'quv faoliyat natijalarini to'g'ri baholashimiz kerak. Eksperiment maqsadiga ko'ra, bir sinfda o'quvchilar muayyan vaqt davomida javoblarining aniqligi va to'liqligiga e'tibor qilmay, faqat maqtaldi. Boshqa sinfda faqat tanqid qilindi, uchinchisida esa biron-bir baho berilmadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bilish faoliyati maqtalgan sinflarda eng yuqori yutuqlarga erishilgan, eng yomon natija o'quv faoliyati tanqid qilingan sinfda emas balki bilish faoliyati sira baholanmagan sinfda vujudga keldi. Bola ko'z o'ngida o'qituvchi qanchalik ahamiyatli, obro'li bo'lsa, uning muktabda, asosan, baholash va baholarda aks etuvchi maqtovlari shunchalik qadrli va ahamiyatli bo'ladi.

Men bu maqolani yozishimdan maqsad: boshlang'ich muktabda nimalar bo'layotir? Boshlang'ich muktab har qanday holda ham o'quvchilardagi bilimlarni shakllantirishda va ularning qobiliyatlarini aniqlashda asosiy ro'l o'ynaydi, keyin ham shunday bo'lib qoladi. Ammo boshlang'ich muktabdagagi barcha o'quvchilar bolalarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun tegishli ishlarni amalga oshirayotimi?

Masalan, nima uchun yuqori sinflarda a'lo baholarga o'zlashtirayotgan bolalar soni kamayib bormoqda? Muktabni bitta yoki ikkita o'quvchi oltin medal bilan bitirishini qanday tushinish kerak? Iste'dodli, qobiliyatli bolalar yo'qmi yoki o'qitish jarayoni shunchalik samarasiz bo'lib qolganmi? Bularning sababi nima? Sababi ko'p. Birinchidan boshlang'ich sinflar o'qituvchisining

bolalar bilan individual ish olib borish imkoniyati cheklangan. Sinflarda bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarga e'tibor berish zarur. Ikkinchidan, mazkur o'qituvchilarning metodik saviyasi yetarli emas. Sinfdagagi umumiy ishlar jarayonida qobiliyatli bolalarning ijodiy imkoniyatlarini cheklanib qolmoqda. Ular o'z qobiliyatlarini ko'rsata olmayotir. O'quvchining butun kuchi va e'tibori sinfga qaratilib, qobiliyatli bolalar ko'zga tashlanmayotir. Umuman aytganda bolalarni saralash va o'qitishga boshqacha yondashishi bilan ularning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boshlang'ich sinflarda matematika, o'qitish metodikasi. Toshkent "O'qituvchi" 1996 [4]
2. Pedagogika. Toshkent "O'qituvchi" – 2013 [143]
3. "Tamaddun Nuri" jurnali – 2019 [11]
4. "Boshlang'ich ta'lif" jurnali – 3-sod 2016 [18-19]
5. "Mahoratli pedagog" jurnali – 2020 [26-27]
6. "Boshlang'ich ta'lif" jurnali – 6-sod 2016 [20-21]